

OILADA QADRIYATLAR SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Sobirova Sojidxon Akramjon qizi

Annotatsiya: *Maqolada oilaviy munosabatlarda qadriyatlarning o'рни, uning ijtimoiy psixologik jihatlari, oila mustahkamligini ta'minlashda qadriyatlardan foydalanish, shaxsning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasi shakllanishi oiladagi qadriyatlarga qanchalik bog'liq ekanligi ochib berilgan. Shu bilan birga oilaviy munosabatlar shaxsdagi qadriyatlarga qanchalik ta'sir ko'rsatishi yoritilgan.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *oilaviy qadriyatlar, shaxs shakllanishi, oila va nikoh, ijtimoiy muhit, ma'naviy qiyofa, oilaviy munosabatlar.*

Аннотация: *В статье раскрывается роль ценностей в семейных отношениях, ее социальные и психологические аспекты, использование ценностей для обеспечения стабильности семьи, а также в какой степени от семейных ценностей зависит формирование духовно-воспитательного образа человека. При этом подчеркивается, насколько сильно семейные отношения влияют на ценности человека.*

Основные слова и понятия: *семейные ценности, формирование личности, семья и брак, социальная среда, духовный образ, семейные отношения.*

Annotation: *The article reveals the role of values in family relations, its social and psychological aspects, the use of values to ensure family stability, and the extent to which the formation of a person's spiritual and educational image depends on family values. At the same time, it is highlighted how much family relationships influence the values of a person.*

Basic words and concepts: *family values, personality formation, family and marriage, social environment, spiritual image, family relations.*

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida oila va uning fundamental asoslari jamiyat rivoji va shaxs kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Inson ijtimoiylashuvining dastlabki bosqichi oila ekanligini hisobga olgan bu sohaga Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb munosabat bildirgan⁵.{1}

Insoniyat yaratilgani boshlab o'zi uchun qulay shart-sharoit, xavfsiz makon qidirib, omon qolish uchun o'ziga o'xshagan, yaqin aloqalarga ega jamoadoshlar izlab kelgan. Insonning juft bo'lib yashashga intilishi, o'zini ma'lum bir guruhda ko'rishga,

⁵ Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.

yaqinlar bilan muloqotga kirishga bo'lgan ehtiyoji dastlabki oila va nikoh munosabatlari vujudga kelishiga imkon yaratgan.

Mehnat taqsimotidagi o'zgarishlar, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanib borishi, jinslarning kasblarga moslashib, ixtisoslashib borishi tufayli oiladagi o'zaro munosabatlar ham o'zgarib boradi.

Xususiy mulkchilik munosabatlari vujudga kelishi orqali o'z hududiy birliklariga va merosiy mulklariga ega qarindoshlar jamoasi shakllanadi. So'ng ma'lum bir kasbga ixtisoslashgan jamoalar va mulkiy tengsizlikning kuchayishi orqali vujudga kelgan boy zodagonlar va kambag'al tabaqa vakillari yashash manzillari ajrala boshladi.

Oilaning vujudga kelishi va rivojlanishi ma'lum ijtimoiy muhitni ham taqozo etgan. Mulkiy ajralish va meros munosabatlari orqali faqatgina er-xotin va farzandlardangina iborat kichik oila shakllanishiga yetarli bo'lmasligi mumkin. Bu borada qandaydir insoniylik tamoyillari, oilaga bo'lgan intilishning inson tafakkuri bilan bog'langan, alohida jarayoni ishlagan deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, faqatgina jinsiy mayllarning qondirilishi, urug'chilik qoidalari va qabilalarning ma'lum bir munosabatga qo'ygan tabulari bilan oilaning shakllanish jarayoni boshlanishi mumkin emas. Chunki ibtidoiy urug'chilik va qabila davrlarida ham mazkur guruhlarining yetakchilarining o'zida ham atrofdagi jamoadoshlarini ushlab turadigan jismoniy kuch yoki hokimiyatdan tashqari oilaviy munosabatlar bo'lishi ham talab etiladi. Bu insoniyat tarixida oilaning vujudga kelishi bosqichlari hayvonlar yashash tarzi va juft bo'lib hayot kechirish qonuniyatlaridan tubdan farqlanishi haqida xulosa qilishga imkon yaratadi.

Turmush munosabatlarning vujudga kelishining asosiy sharti bu munosabatlarga bo'lgan ehtiyojlar va ijtimoiy qarashlarda aks etgan majburiyatlar hisoblanadi. Bu ehtiyojlarning zamirida shaxsning individual hayot tarzidagi o'ziga xosliklar bo'lib, u goh biologik (juftlashish, farzand ko'rish), goh ijtimoiy (yolg'izlikdan qutilish, mavqei yaratish yoki mustahkamlash) ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladi. Bu oila va nikoh munosabatlari yuzaga kelishidagi ilk omil bo'lib, ko'pincha birlamchi ehtiyojlar va ijtimoiy majburiyatlar zamirida insonning jinsiy va jismoniy mayllarning ustuvorligi namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, Oila munosabatlarida oldindan maqsad qilinmagan va hech qanday jinsiy mayllarga bog'lanmagan hissiy asoslar ham mavjud bo'ladi-ki, bu shaxsning oilaga va oilaviy munosabatlarga bo'lgan qarashlarini mustahkam hissiy qarashlar, sevgi va muhabbat, muqaddaslik, fidokorlik, sadoqat tuyg'ulari bilan bog'lanadi. Yuksak psixologik hissiyotlar asosida shaxs o'zini anglashning eng yuqori cho'qqisi, yuqori hissiy maqsadlarga yo'naltirilgan inson kamolotiga bo'lgan intilishlar yotadi. Bu intilishlar axloq va diniy e'tiqod darajalari, muloqot ko'nikmalari, oila va nikoh munosabatlarga bo'lgan motiv xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ota-onaning, ayniqsa, onaning go'dak haqidagi qayg'urishlarini psixologiya fanida birgina "mehrli munosabat" atamasi bilan izohlash mumkin. Go'dak o'lg'aygan sari bu so'zning ma'nosi ham o'z-o'zidan kengayib boradi. Oiladagi shaxslararo

munosabatlarning kengayishi, ota, ona va bola uchligi munosabatlarning chuqurlashishi ota-onalarda mehri munosabatlarning tajriba sifatida shakllanishiga olib keladi. Ota-ona bilan go'dak o'rtasidagi dastlabki muloqot va mehri munosabat fiziologik shaklda kechadi, ya'ni go'dakni ona dastlab bag'riga bosishi, qo'lida tutib turishi, uni xavfsiz harakatlantirishi kabilar boladagi yaxshi yoki yomon psixologik munosabatning yuzaga kelishini ta'minlaydi.[2]

Oilada a'zolar o'rtasidagi muloqot bosqichlaridan eng muhimlari deb quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Oilaning tashkil topishigacha bo'lgan psixologik muhit. Oilaga bo'lgan ehtiyojni his etilishi va konkret munosabatlarga o'tilishi;

- Oila munosabatlariga kirishishdagi ijtimoiy-iqtisodiy kelishuv va shartnoma xususiyatlarining paydo bo'lishi. Oilada a'zolarining huquq va majburiyatlari avvaldan belgilab qo'yilishi;

- Oilaning jamiyat tomonidan tan olinish va qo'llab-quvvatlanish bosqichi. Oilaga jamiyatning bir bo'laki sifatida qarashning vujudga kelishi;

- Oilalararo murakkab ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi, meros huquqiga oid bilimlar hamda quda-andachilik munosabatlarning ijtimoiylashuv bosqichi;

- Er-xotinlik, ota-ona va farzand munosabatlarida jamiyat va davlatning o'z normalarini kiritishi va amalga tatbiq etilishi;

- Oilaning farzand tarbiyasidagi asosiy vazifasini ta'lim muassasalaridagi ta'lim bilan ajralishi va h.k.

Oilaning asosiy ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va psixologik vazifalarini qisqacha tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, shaxsda shakllanadigan barcha tuyg'ular: mehribonlik, oqibatlilik, o'ziga va atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatlilik kurtaklari oilada namoyon bo'ladi. Shu sababli oila xorijiy adabiyotlarda ijtimoiylashuvning birlamchi asosi deb ham ataladi.

Ma'lumki, shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlar negizida shakllanadi, bu munosabatlar mahsuli hisoblanadi. Shuningdek, shaxs ongli faoliyatning subyekti va ijodkoridir. Oilada shaxsga tegishli bo'lgan eng muhim ta'rif ham uning jamiyat orasidagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorligi, bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishligidir.

Har bir shaxs oilaning jamiyatdagi o'rni va funksiyalarini, qadr qimmatini anglamasdan, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, Vatan tuyg'usini tom ma'noda xis qila olmaydi. Bu ish asosan har bir o'zbek oilasidagi tarbiya an'analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarni turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylantirish, muloqot madaniyatining Sharqona ko'rinishlari bilan zamonaviy shakllarini uyg'unlashtirish, mehnat tarbiyasi, uning farzandlar farovon turmush kechirishining muhim tamoyili sifatida qadrlanishiga erishishi orqali amalga oshirish mumkin.

Oila ko'p funksiyali ijtimoiy institut sifatida jamiyatning har bir faoliyatida o'z ta'sirini o'tkazadi. Shaxsning ta'lim va tarbiya olishidagi bevosita ishtiroki orqali oilaning barcha a'zolariga umumiy bo'lgan tamoyillar oila institutida mujassamlashadi deyish mumkin. Shuning uchun ham oila institutida shakllangan va qadriyat darajasiga ko'tarilgan barcha tamoyillar jamiyat hayotida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar mazmunidan qa'tiy nazar, o'zida shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, axloqiy va diniy kelib chiqishini, milliy va umuminsoniy xarakterini namoyon etishdagi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, an'analarisiz tasavvur qilish qiyin. "Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim".

Umuman olganda yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning hatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatidan boshlanadi. Har bir inson, u katta va kichikligidan qat'i nazar, o'zining his-tuyg'usini, ichki tug'yoni, orzu-umidlarini munosabat jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida, hamkorligida, o'zaro ta'sirida vujudga keladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Антонов А.И. Микросоциология семьи. – М., 2005.
2. Воспроизводство населения и общество. История, современность, взгляд в будущее. – М., 1982.
3. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami). –Т; "O'zbekiston", 1997.
4. Нуралиева Д. М. ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 6. – С. 39-43
5. Нуралиева, Дилдора Мамуржоновна. "ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ." Uzbek Scholar Journal 6 (2022): 39-43.
6. Mamurjonovna N. D. PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS. – 2022.
7. Nuralieva D. M. THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 405-410.
8. Nuralieva, D. M. "THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.

9. Nuralieva, D. M. (2020). THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 405-410).
10. Нуралиева Д. М. КОНЦЕПЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ СЕМЬИ //ББК Ю953. – 2020. – С. 405.
11. Mamurjonovna N. D. The concept of psychological service and its controversial issues in family //Archive of Conferences. – 2020. – Т. 2. – №. 2. – С. 34-36.
12. Mamurjonovna N. D., Nurislom Ulug'bek o'gli K. A STUDY OF THE SOCIAL PERCEPTIONS OF CHILDREN OF HAPPY AND CONFLICTED FAMILIES ABOUT THE FUTURE //Conference Zone. – 2022. – С. 9-11. in family. In Archive of Conferences (Vol. 2, No. 2, pp. 34-36).
13. Mamurjonovna N. D., Abdukarimova M. R. ON THE PSYCHOLOGICAL CRITERIA AND ORIGINAL FACTORS OF DISPUTES BETWEEN YOUNG PEOPLE //Archive of Conferences. – 2021. – С. 50-55.
14. Dildora, Nuraliyeva, and Abdusamatov Khasanboy Social. "psychological characteristics of families on the verge of divorce 2021." Special Issue on Engineering Technologies and Management C-3889-3897.
15. Nuraliyeva D. M. STUDYING SUSCEPTIBILITY TO THE BEHAVIOIR OF THE PAIR IN THE RELATIONSHIP BETWEEN MAN AND WOMAN AND GIVING A SOCIAL-PSYCOLOGICAL HELP //Теория и практика современной науки. – 2018. – №. 5. – С. 32-34.
16. Nuraliyeva D. M. Development of socio-psychological mechanisms of psychological services to families and children. – 2019.
17. Dildora N., Social A. K. psychological characteristics of families on the verge of divorce 2021 //Special Issue on Engineering Technologies and Management C-3889-3897.
18. Nuralieva D. M. CHARACTERISTICS OF MARRIAGE RELATIONS IN PROVIDING PSYCHOLOGICAL AID TO THE FAMILY AND IT INFLUENCE ON THE STRENGTH OF MARRIAGE //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 411-414.
19. Mamurjonovna N. D., Nurislom Ulug'bek o'gli K. A STUDY OF THE SOCIAL PERCEPTIONS OF CHILDREN OF HAPPY AND CONFLICTED FAMILIES ABOUT THE FUTURE //Conference Zone. – 2022. – С. 9-11.
20. Mamurjonovna N. D. PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS. – 2022.
21. Mamurjonovna, Nuraliyeva Dildora. "PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS." (2022): 115-121.
22. Mamurjonovna N. D., Moydinova Z. FAMILY STABILITY THE INFLUENCE OF PREMARITAL FACTORS. – 2022.

23. Mamurjonovna, Nuraliyeva Dildora, and Z. Moydinova. "FAMILY STABILITY THE INFLUENCE OF PREMARITAL FACTORS." (2022): 268-273.
24. Нуралиева Д. М. ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 6. – С. 39-43.Нуралиева,
25. Нуралиева, Д. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. Uzbek Scholar Journal, 6, 39-43.
26. Нуралиева, Дилдора Мамуржонова. "ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ." Uzbek Scholar Journal 6 (2022): 39-43.
27. Nuralieva D. M. THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 405-410.
28. Нуралиева Д. М. КОНЦЕПЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ СЕМЬИ //ББК Ю953. – 2020. – С. 405.
29. Mamurjonovna N. D. The concept of psychological service and its controversial issues in family //Archive of Conferences. – 2020. – Т. 2. – №. 2. – С. 34-36.
30. Shamsiev O., Abdusamatov X. Dastlabki muloqot – shaxs shakllanishining asosi. Central Asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS) Universal Impact Factor: 7,1 ISSN:2181-2454. DOI: 10.24412/2181-2454-2022-2-202-207 VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2022. В. 202-207.